

Ogohlik va hushyorlik – davr talabi

Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida mamlakatimizda tinchlik-osoyishtalikni asrash, millati, dini, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, barcha fuqarolarning huquq va manfaatlarini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning samarasida farzandlarimiz tinchlik hukmron ozod va obod yurtda, mehr-oqibat, muruvvat, saxovat, ezgulik barqaror muhitda hech kimdan kam bo'lmasdan kamolga yetmoqda.

O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agenligida joriy yilning 22-iyun kuni "Ogohlik va hushyorlik-davr talabi" mavzusiga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi. Unda, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi ijtimoiy gumanitar kafedralari ilmiy metodik kengashi raisi, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent, polkovnik Sharif Qobilovning ma'ruzasi tinglandi.

Tadbirda mamlakatimizdagi tinchlik-osoyishtalik xalqimizning eng katta boyligi ekani, baxtiyor va farovon hayotning, istiqlolimizning qadriga yetish, uni asrab-avaylash har bir insonning farzandlik burchi ekani xususida so'z yuritildi. Farovonbahsh kunlarimiz zamirida ota-bobolarimiz, katta avlod vakillarining jasorati va fidoyiligi, chekkan zahmati mujassam ekani Agentlik xodimlariga sodda va ta'sirchan, hayotiy misollar yordamida tushuntirildi.

– Bugun tinch-osuda, bolalarning quvnoq kulgisi yangrab turgan, kattalarning chehrasida o'z hayotidan mammunlik, baxtiyorlik yog'ilib turgan, butun jahon havas bilan boqayotgan hur va ozod yurtda yashamoqdamiz, – dedi Sharif Qobilov. Bunday yorug' kunlarga, to'kinlik, farovonlik barqaror bo'lgan dorilomon zamonga o'z-o'zidan erishilgani yo'q. Davlatimiz rahbarining "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q", "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida", "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarlarida barchamiz uchun eng muqaddas tushuncha bo'lgan mustaqillik, ozodlikka qanday sinov va mashaqqatlar evaziga erishilgani, istiqlolimizning ma'naviy asoslari tarixiy-tahliliy materiallar, hayotiy misollar, teran qiyoslashlar orqali ifodalangan. Tinchlikning qadriga yetish, yon-atrofga doimo hushyor va ogoh, teran nigoh bilan nazar solish, Vatan taqdiri uchun mas'uliyatni dildan anglash har birimizning zimmamizda.

Tadbirda xalqaro terrorizmning mohiyati va tahdidi, terrorizm va diniy ekstremizm ko'rinishidagi jinoyatlarning bugungi kundagi holati, ushbu turdag'i jinoyatlarga qarshi kurashning dolzarb muammolari, ularni bartaraf etish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar, terrorizm va diniy ekstremizm jinoyatlarining oldini olish va ochish bo'yicha o'tkaziladigan tezkor qidiruv tadbirlarini yanada

takomillashtirish va bu boradagi ishlarni tashkil etishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikni kuchaytirish choralarini ko‘rish masalalari yuzasidan ma’ruza tinglandi.

Aytish joizki, hozirgi kunda dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo‘lgan eng birlamchi masalalardan biri korruptsiya muammosidir. Shu bois unga qarshi kurash xalqaro miqyosga ko‘tarilib, jahon siyosatining muhim masalalaridan biriga aylanganligi, ushbu illat nafaqat islohotlar yo‘liga jiddiy to‘sinq bo‘lishi, balki o‘tish davrida belgilangan maqsadlarga erishishga ham bevosita tahdid tug‘dirishi barchaga ma’lum ekanligi borasida ma’ruzachi alohida to‘xtalib o‘tdi.

Mamlakatimizda mazkur muammoga qarshi kurash masalasiga mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq jiddiy e’tibor qaratib kelinayotir. O’tgan davr mobaynida korruptsiya va jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda uning oldini olishga qaratilgan mustahkam huquqiy baza va tizimli amaliyot shakllandi.

Odam savdosining oldini olish va unga qarshi kurashish borasida yurtimizda ham qator chora-tadbirlar amalga oshirib kelinishi, O’zbekiston Respublikasining 2008-yilning 17-apreli dagi “Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni va Yurtboshimizning 2008-yil 8-iyuldagagi “Odam savdosiga qarshi kurashish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori mamlakatimizda odam savdosi jinoyatiga qarshi kurashishning milliy qonunchilik asoslarini yaratib bergenligi va shu nuqtai nazardan, odam savdosi holatlarining oldini olish, aniqlash va ularga chek qo‘yish, uning oqibatlarini minimallashtirish hamda odam savdosidan jabrlanganlarga yordam ko‘rsatishga qaratilgan bir qator tashkiliy va profilaktik tadbirlar o‘tkazib kelinishi tadbir davomida aytib o‘tildi.

Shundan so‘ng ma’ruzachi xavfsizlik masalalariga yana bir bor to‘xtalib, xodimlarning o‘z ish joylarida hamda o‘zлari yashaydigan mahallalarda xavfsizlik bilan bog‘liq ishlarga jiddiy munosabatda bo‘lishi yurtimiz tinchligi va barqarorligini saqlashda katta ahamiyatga ega ekaniga urg‘u berdi. Tashkilot va muassasalar binosiga kirish-chiqishda xavfsizlik nazoratini yanada kuchaytirish, avtotransport sohasida xavfsizlikni ta’minalash maqsadida tashuvchilar o‘rtasida targ‘ibot-tashviqot ishlari ko‘lamini kengaytirish, yo‘lovchilarning ogohligini oshirish chora-tadbirlari xususida fikr yuritib, zarur tavsiya va ma’lumotlar berdi.

Qizg‘in muloqot ruhida o‘tgan tadbir so‘ngida Agentlik xodimlari o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob olib, tadbir bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirib o‘tdilar.

Tadbirda Agentlikning Markaziy apparati, ATRNTT Respublika markazi, Avtodaryotrans-Ilm davlat ilmiy-metodik markazi, Agentlikning Toshkent shahri va viloyati hududiy bo‘limlari xodimlari ishtirok etishdi.